

GREK VA O'ZBEK TILLARINI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISH: MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Umida Sattarova Iminjon qizi

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti, 3-kurs talabasi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ilmiy maslahatchi: Musayeva Surayyo Xusanovna,

O'zDJTU ikkinchi chet tillari kafedrası, grek tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola grek va o'zbek tillarini xorijiy til sifatida o'qitishda uchraydigan muhim muammolar va ularni oldini olish uchun innovatsion yondashuvlar o'rganiladi. O'qituvchilar va o'quvchilar orqali o'tkazilgan suhbatlar, kuzatuvlar asosida tahlillar keltirilgan. Xususan, tilshunoslik, madaniyat va ta'lim metodikasiga aloqador muammolar keng yoritilib, dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradigan texnologik va metodik yechimlar tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, grammatik murakkabliklar va madaniy farqlar til o'rganishda qiyinchilik tug'dirsa-da, zamonaviy vositalar va madaniy integratsiya orqali bu jarayon osonlashtirilishi mumkin.

Kalit so'zlar: xorijiy tilni o'rgatish, grek tili, o'zbek tili, metodika, raqamli texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar.

Annotation. This article explores the key challenges encountered in teaching Greek and Uzbek as foreign languages and examines innovative approaches to overcome them. The analysis is based on interviews and observations conducted with teachers and learners. Particular attention is given to issues related to linguistics, culture, and teaching methodology. The study also presents technological and methodological solutions that can enhance the quality and effectiveness of language instruction. According to the findings, although grammatical complexity and cultural differences present difficulties, the learning process can be facilitated through modern tools and cultural integration.

Key words: foreign language teaching, Greek language, Uzbek language, methodology, digital technologies, modern approaches.

Kirish. Hozirgi kunda chet tillarni o'rgatish sohasi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Dunyoda keng ishlatiladigan ingliz, nemis va fransuz tillaridan tashqari, grek va o'zbek tillariga ham qiziqish kundan- kunga ortib bormoqda. Ushbu tillarning fonetik, morfologik va sintaktik tizimlari o'ziga xos bo'lib, bu ularni o'rganishda ma'lum darajada qiyinchilik keltirib chiqaradi. Shuningdek, madaniy va muloqot kontekstining o'ziga xosligi ham ta'lim jarayoniga ta'sir qiladi (Papadopoulos, 2018; Temirova, 2021). Ushbu maqolada bu tillarni xorijiy tili sifatida o'rgatishdagi asosiy muammolar va ularni hal etish bo'yicha innovatsion yechimlar keng yoritiladi.

Tadqiqot sifat tahlili asosida o'tkazildi. Ma'lumotlar quyidagi usullar orqali to'plandi:

- 4 nafar grek va 4 nafar o'zbek tili o'qituvchilari bilan suhbatlar;
- 10 nafar talaba fikrlari (har ikki tilda ta'lim olayotganlar);
- Dars jarayonlarini bevosita kuzatish (har ikkala tildan 4 ta dars).

Ushbu ma'lumotlar yordamida tahlil quyidagi talablar bo'yicha olib borildi: grammatik murakkabliklar, talaffuz va eshitishdagi muammolar, o'quv materiallari yetishmovchiligi va madaniy moslashuv (Kochetkova, 2020; Temirova, 2021).

Muhim muammolar quyidagilar bo'ldi:

Til tizimidagi farqlar: Grek tilida urg'u va morfologik o'zgaruvchanlik asosiy rol o'ynasa, o'zbek tilida qo'shimchalar orqali yasaliş murakkablik keltirib chiqaradi (Kochetkova, 2020; Papadopoulos, 2018).

Resurslar kamligi: Ikki til uchun ham mos darsliklar, multimediya materiallari va interaktiv platformalar yetarli emas (Temirova, 2021).

Madaniyat bilan bog'liq muammolar: O'quvchilar ko'pincha mahalliy madaniyat kontekstini tushunishda qiyinchilikka uchraydi (Papadopoulos, 2018).

Talaffuzdagi qiyinchiliklar: Grek tilidagi urg'u va o'zbek tilidagi unli tovushlar uyg'unligi xorijiy o'quvchilar uchun muammo bo'ladi (Richards & Rodgers, 2014; Papadopoulos, 2018).

Ijobiy yechimlar va yangiliklar:

Raqamli ilovalar: Quizlet, Duolingo, Ibrat academy va boshqa mobil platformalar yordamida til o'rgatish yanada osonlashgan (Temirova, 2021).

Gamifikatsiya: O'yinlashtirish vositalari orqali talabalar aktivligi ortgan (Richards & Rodgers, 2014).

Madaniy integratsiya: Darslarda film, qo'shiq va hikoyalar orqali madaniyatni tushuntirish o'quvchilarning qiziqishini yanada oshirgan (Papadopoulos, 2018).

Aralash ta'lim: Onlayn va an'anaviy darslarning uyg'unligi asosida olib borilishi yuqori samara bergan (Temirova, 2021).

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, grek va o'zbek tillarini xorijiy auditoriyaga muvaffaqiyatli o'qitish uchun an'anaviy yondashuvlar bilan birga, zamonaviy metodlar va texnologiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi (Richards & Rodgers, 2014; Temirova, 2021). Shuningdek, madaniy kontekstni tushunishga yordam beradigan topshiriqlar, ko'rgazmali vositalar va multimediya vositalari dars jarayonining unumdorligini oshiradi (Papadopoulos, 2018). Talabalarning fikricha, darslar madaniy jihatlar bilan boyitilganida, tilga bo'lgan qiziqish oshadi (Kochetkova, 2020).

Maqolada keltirilgan xulosalarga tayanib, davlat darajasida ushbu tillarni keng targ'ib qilish uchun qo'shimcha dasturlar, darsliklar va metodik materiallar yaratish kerak. Til markazlari bilan xalqaro hamkorlik tadbiriq etilsa, bu ikki tilning o'qitilish sifati va ommaviylashuvi oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kochetkova, L. (2020). Turkiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlar. Toshkent.
2. Papadopoulos, A. (2018). Chet tili sifatida grek tilini o'rgatish: dolzarb masalalar. Ellin tilshunosligi jurnali, 12(1), 44–59.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Til o'qitish uslublari va metodikalari. Cambridge University Press.
4. Temirova, N. (2021). O'zbek tilini xorijliklarga o'qitishda texnologiyalardan foydalanish. Til innovatsiyalari, 5(3), 112–120.